




Tadqiqot.uz



ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA MILLIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMAN

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



MENDELEEV DMITRIY IVANOVICH  
(1834-1907)

2022  
FEVRAL  
№37



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.l, 2-uy.



+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00



[www.taqiqot.uz](http://www.taqiqot.uz)



[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)

**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
15-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-15**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-15**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 37-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 28 февраль 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 11 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**МУСИҚА ВА ҲАЁТ**

**1. Shokarimov O‘.I**

ZAMONAVIY MUSIQIY TA’LIMDA BOLALAR UCHUN FOYDALI BO‘LGAN XORIJY  
USLUBLARNING QISQACHA TAVSIFI ..... 7

**2. Shokarimov O‘.I.**

O‘ZBEKISTONDA XOR IJROCHILIGI VA XOR SAN’ATINING SHAKLLANISHI,  
RIVOJLANISHI ..... 9



## МУСИҚА ВА ҲАЁТ

### ZAMONAVIY MUSIQIY TA'LIMDA BOLALAR UCHUN FOYDALI BO'LGAN XORIJUY USLUBLARNING QISQACHA TAVSIFI

Shokarimov O.I.

O'zbekiston davlat konservatoriyasi  
“Akademik xor dirijyorligi” kafedrasи

katta o'qituvchisi

+998946970915

**Annotatsiya.** Yangi O'zbekistonning uchinchi renessans davrida bolalarning musiqiy salohiyatini oshirish biz mutaxassislar uchun juda ham muhimdir. Ilmiy izlanishlar natijasida ushbu sohada aniqlangan muammolarga yechim sifatida bir nechta xorijiy uslublarni, hozirda olib borilayotgan ta'lism islohotlariga ko'ra moslashtirib, uni ommalashtirish taklifini ko'rib chiqishimiz kerak. Yillar mobayni tajribadan o'tgan, bolalar uchun foydali xorijiy uslublar bilan yaqindan tanishib, ularning eng kerakli jihatlarni ongli ravishda tanlab olib, uni ta'lum tizimida qo'llash foydadan holi bo'lmaydi.

**Kalit so'zlar.** Uslublar, bolalar xor ijrochiligi, musiqiy ta'lum.

Bolaning ongi uch yarim yoshdan keyin musiqiy tarbiyani to'g'ri yo'naltirilishiga ehtiyoj sezsa boshlaydi. Bu vaziyatda bolalar uchun maxsus ishlab chiqilgan uslublardan oqilonan foydalanish yordam beradi. Bu uslublar musiqashunos olimlar, pedagoglar, san'at arboblari va kompozitorlar tomonidan yillar davomida shakllangan ko'nikmalar asosida paydo bo'lgan. Masalan, Karl Orf, Zoltan Koday, Dmitriy Kabalevskiy, Shinichi Suzuki, Helen Hayner, Georgiy Struve, Per Hauver va boshqa ko'plab nomlarni keltirishimiz mumkin. To'g'ri bu insonlar tomonidan ishlab chiqilgan uslublarsiz ham farzandlarimiz musiqaga e'tibor bilan ulg'ayishi mumkin, lekin bu jarayon bolaning qanchalik musiqiy salohiyati bilan ulg'ayishi va vaqt tezligini belgilashini unutmasligimiz kerak.

Ana endi yuqorida nomi keltirilgan ayrim ijodkorlarning uslublaridan umumlashtirilgan fikrlarni bayon qilamiz. Dmitriy Kabalevskiyning izlanishlari natijasi shuni ko'rsatdiki, bolalarning musiqiy ta'lumi asosiy uch jihatga quriladi. Bular raqs, qo'shiq va marsh. Ushbu jihatlarni bolaga go'dakligidan boshlab tanishtirish va ularni tabiiy jarayon sifatida singdirish kerak deb ta'kidlaydi. Marshning aniq ritmik ko'rinishi raqsdagi harakatlarda o'z aksini topadi va bu jarayon qo'shiq kuylashga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Dmitriy Kabaleyskiy uslubining asosiy jihatni bu – bolalar bilan doimiy muloqot yuritishidadir. Boshqa mutaxassislarning fikriga ko'ra ushbu jihat bolalar, musiqani mustaqil ravishda qabul qilishi, tushunishi, baholashi va his qilish xususiyatlarni shakllantiradi. Ushbu uslub bilan maktagacha ta'lum tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan musiqa rahbarlari yaqindan tanishishini va uni amalda qo'llashini tavsiya qilardik. Bu jarayon bolalarda kamida madaniyatli musiqa tinglovchisini shakllantiradi.

Galdagi uslub Karl Orfning “Shulverk” nomi bilan mashhur. Bu uslub o'zida badihago'ylikni asosiy unsur deb xisoblab, turli qobiliyatdagи bolalarda ijodiy jarayonning cholg'ular orqali shakllantirishini o'zida mujassamlashtiradi.

Ushbu uslubda bolalar uchun maxsus urma-zarbli cholg'ular bo'lmish: musiqiy uchburchak, qo'ng'iroqchalar, ksilafon, baraban kabilar yordamida aniq bir musiqiy asarni emas, balki, bolalarning o'zлari tomonidan chalinayotgan badihago'ylikni tartibga solish asosiy maqsad qilib olingan. Bunda bolalarga aniq bo'lgan syujet yoki bir lavhani musiqa orqali yoritib berilishi so'raladi va nazorat qilib boriladi. Ma'lum bir matnga oson harakatlar tanlab olinib, uni ma'lum cholg'ular yordamida ifoda etiladi. Bu jarayon bolalarda o'z fikrlarni nafaqat so'z orqali bayon eta olishini, balki, musiqiy tovushlar orqali ham o'z tushunchasini yetqaza olish ko'nikmasini shakllantiradi. Karl Orfning uslubida tuyg'u bilan, ifoda vositalarini topish xayolotni rivojlantiradi. Bu esa musiqaga bo'lgan muhabbatni shakllantiradi. Ushbu uslub barcha uchta asosiy musiqa



yo‘nalishini birlashtiradi va bolaga oddiy va qulay o‘yin shaklida musiqani tushunishiga imkon beradi. O‘z mamlakatlarining etnik va folklor qo‘schiqlarini o‘rganish orqali bolalar keyinchalik yurtining madaniyatiga qiziqadi va uni o‘rganishga harakat qilishadi.

Navbatdagi uslub Yaponiyalik san’at arbobi, musiqiy mutaxassis Shinichi Suzukiga tegishli. Bu uslubning asosiy g‘oyasi musiqiy ta’limni bolaning juda ham yoshligidan tarbiyalashga qaratilgan. Suzuki o‘z tajribasida bolalarni 2-3 yoshligida skripkada ijro etishni o‘rgatishga kirishdi va o‘sha bolalardan 4-5 yoshida kichik ansamblarni yaratdi. Uning g‘oyasi bo‘yicha barcha bolalar musiqiy qobiliyatga ega holda dunyoga keladi, eng muhimmi, o‘sha iste’dodni o‘z vaqtida ko‘ra olish va uni rivojlantirishdir. Bu jarayonda bolalarni butun qalbi bilan sevadigan kishi muvaffaqiyatga erishadi. Har bir o‘qituvchi bolalarga juda ham mehribon va o‘z navbatida qat’iy va talabchan bo‘lib, bolaga nisbatan katta tuyg‘uga ega bo‘lishi kerak, aks holda hech qanday uslub unga yordam bermaydi. Eng yaxshi o‘qituvchi bu – bolaning ota-onasidir. Bolaga to‘g‘ri munosabatda bo‘lgan holda, faqat ona yoki ota unga kerakli ma’lumotlarni yetkazib berishi va kerakli ko‘nikmalarga bolaligidan boshlab o‘rgatishi mumkin. Suzuki uslubi bo‘yicha ta’lim kundalik mashg‘ulotlar orqali amalga oshiriladi, ammo ular musiqani o‘rganishga emas, balki munosib va bilimdon insonni shakllantirishga qaratilgan.

Vengriyalik mutaxassis Zoltan Koday o‘z uslubida to‘rtta asosiy unsur: musiqiy eshitish qobiliyati, uni his qilishi, aqli va qo‘li orqali musiqiy iqtidori bor insonni ajratib olish mumkin deya xisoblaydi. Shu bilan birga, u musiqa qobiliyatiga ega bo‘lmagan bolalar yo‘qligiga ishonadi va musiqiy qobiliyati bo‘lmagan kattalar –bolaligidan ushbu ta’limdan mahrum bo‘lganlardir deb o‘z fikrini bayon etadi. Musiqiy eshitishni rivojlantirish – tinglash va qo‘shiq kuylash orqali amalga oshiriladi. Zoltan Kodayning uslubida ovoz musiqiy qobiliyatni rivojlantirishda asosiy asbob sifatida ko‘rsatilib, bola biror bir cholg‘uni chala olmasligi mumkin, lekin albatta kuylay olishi shart degan g‘oyani ilgari suradi. Shuningdek, uning musiqiy ta’limida kuylash, kaftlari orqali qarsak chalish va ritmni his qilishi asosiy maqsad qilib olingan. Bolada musiqiy qobiliyatni shakllanishida nafaqat uning ota-onasi, balki butun jamiyat baravariga harakat qilishi kerak deb ta’kidlaydi. Buning natijasida musiqiy rivojlangan bola keyinchalik jamiyatning rivojiga o‘z xissasini qo‘sha olishiga ishonadi.

Musiqa asoslarini o‘qitish uchun muayyan uslubni tanlash faqat ota-onaning ihtiiyoriga bog‘liq. Musiqiy asarlarning afzalliklari va estetik hissi o‘z rivojlanishida yoki mashhur o‘qituvchilarning tajribasiga asoslangan bo‘lishi mumkin. O‘rganishdagi asosiy narsa - bolaga bo‘lgan sevgi va uning o‘ziga xosligiga ishonishdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baxritdinova N.A. «Bolalarning musikiy tarbiyasida ba’zibir tendensiyalar». «Гармонично развитое поколение-условие стабильного развития Р.УЗ.» «Узбекский научно-исследовательский институт педагогических наук имени Т.Н. Кариниязова» Т.2015
2. Mansurova G.Sh. “Qo‘shiq – do‘stdir barchaga (yoxud maktablarda xor jamoalari tuzish muammomi?)”. Xalq ta’limi jurnali 2013/6
3. Baxriddinova A. “O‘zbekistonda bolalar xor madaniyati” Toshkent 2002 y



**O‘ZBEKISTONDA XOR IJROCHILIGI VA XOR SAN’ATINING SHAKLLANISHI,  
RIVOJLANISHI**

**Shokarimov O.I.**

O‘zbekiston davlat konservatoriysi  
“Akademik xor dirijyorligi” kafedrası  
katta o‘qituvchisi  
+998946970915

**Annotatsiya.** Azaldan jamoa bo‘lib qo‘sishq aytish hamma xalqlarning mehnat faoliyatini, turmush tarzini, orzu-umidlarini ifodalab berish uchun ishlatalig. Qo‘shiqlar asosan avloddan-avlodga ustoz-shogird an’analari orqali og‘zaki usulda qoldirilgan. Yurtimizda erkaklar, ayollar va bolalarning birga qo‘sishq aytish an’analari mavjud bo‘lib, turli marosim va sayllarda, marsiyalarda, mohi ramazon oyida bolalarning “Ramazon” qo‘sishqini aytishi yoki kattalarning zikr tushishi kabi diniy jamoaviy qo‘shiqlarini aytib kelishgan. Navro‘z sayllarida yigit va qizlarning qo‘sishq aytishi, to‘ylarda aytildigan yor-yor, yallalar jamoa bo‘lib bir ovozda ijro etilgan. O‘zbek musiqasining asosi monodik (bir ovozli) bo‘lganligi tarixiy manbaalar orqali ma’lum bo‘lib, ko‘p asrlar davomida ko‘p ovozli ijrochilik an’analari amalda qo’llanilmagan.

**Kalit so‘zlar.** Xor, xor san’ati, xor ijrochiligi, shakllanishi, rivojlanishi.

“Взаимобогащения музыкальных культур народов Средней Азии и Казахстана” nomli jurnalning 1977 yilgi sonining 102- betidagi ma’lumotlarga ko‘ra qadimgi So‘g’d mamlakatida professional xor mavjud bo‘lib, bu san’at arablar paytida rivojlanishdan to‘xtagan. Lekin yakka ijrochilik, an’anaviy jamoaviy kuylash shakllari saqlanib qolgan. Xor san’ati XX asrda rivojlanib, o‘tmishda professional xor ijrochilik an’analariiga ega bo‘lмаган davlatlarda ushbu san’at o‘ziga xos yo‘llar bilan shakllanib taraqqiy etdi. Tarixiy manbalar va dastlabki xor uchun yozilgan asarlarni o‘rganish jarayonida ko‘plab xalqlarning musiqa madaniyati milliy an’analarga tayangan holda shakllanganini kuzatishimiz mumkin. Bunday jarayonga albatta sobiq ittifoqning musiqa madaniyatidagi islohotlari katta ta’sir o‘tkazdi.

1917 yildagi Oktyabr inqilobi tufayli sodir bo‘lgan siyosiy o‘zgarishlar ta’sirida xor san’ati ham rivojlanishlar kuzatildi. Yurtimizning o‘quvchi-yoshlar orasi yigirmanchi asrning 20-yillarda musiqa havaskorligi keng tarqala boshladи. Ta’limdan tashqari turli xavaskorlik musiqa, xor va raqs to‘garaklarini tuzilib jadal ravishda o‘z ijodiy faoliyatlarini boshlashdi. O‘sha davrda tashkil qilingan har bir kichik xavaskorlik to‘garaklarning asosiy maqsadi jamoa bo‘lib bir ovozda xalq qo‘shiqlarini, inqilobi qo‘shiqlarni va turli madhiyalarni ijro qilish va uni targ‘ib qilishdan iborat edi. Musiqa xavaskorligini keng targ‘ibotchisi bo‘lib shu yillarda Xamza Xakimzoda Niyoziyning faoliyati alohida ajralib turdi. Inqilob kuychisi Niyoziy xalq orasida madaniy oqartuv ishlarini ham olib bordi. Uning o‘z truppasi bilan turli regionlarda konsertlar berishi o‘sha joylarda xavaskorlik to‘garaklarini shakllanishida sabab bo‘ldi. XX asrning birinchi choragida yurtimizning shahar va qishloqlaridagi ta’lim maskanlarida xor, raqs, va badiiy so‘z to‘garaklarining ochilishlari urfga aylandi. Bunday to‘garaklarning tashkil qilinishida albatta har bir mintaqadan chiqqan tashabbuskorlarning mehnatlari beqiyosdir. Shamsiddin Shoumarov, Saodatxonim Yenikeyeva, Usta Olim Komilov, Matyusuf Xarratov, V.Sakovich kabilarni aytib o‘tishimiz lozimdir. Sh.Shoumarov Toshkentda “Namuna” nomli o‘zbek maktabida xor to‘garagini tashkil qilgan bo‘lsa, O.Komilov Marg‘ilonda, M.Xarratov Samarqandda xuddi shunday xor to‘garaklarini tashkil qildilar va bir necha yillar samarali ish faoliyatlarini olib bordilar. Ta’kidlab o‘tish joizki Toshkentda V.Sakovich tomonidan “Zebuniso” maktabi qoshida 1919 yilda tashkil qilgan maktab-teatr jamoasi 3 guruh – xor, raqs va drama iborat bo‘lib, o‘zida 300ga yaqin bolajonlardi qamrab olgan edi. Shuningdek, V.Sakovich qizlar xor jamoasi bilan ham yaxshi natijalarga erishdi. Shu davrda Turkiston frontining ayrim qismlarida ko‘pmillatli konsertlar jamoalari tashkil topa boshlaydi. Bu jamoalarda o‘zbek, tojik, qirg‘iz, rus, tatar, turkman va ukrain millatiga mansub insonlar ijodiy faoliyat olib borib, asosan ommaviy va xalq qo‘shiqlarini kuylashgan. Turkistonning front qismlari X.X.Niyoziy ham o‘z truppasi bilan tashrif buyurar va o‘zining mualliflik qo‘shiqlarini ommaga taqdim etar edi.

Xavaskor xor ijrochiligining ommalishishi va rivojlanishi natijasida maktab o‘quvchilari orasida ham xorga bo‘lgan qiziqish uyg‘ondi. Toshkent davlat konservtoriyasining “Xor dirijyorligi”



kafedrasining o‘qituvchilari M. Subayeva va S. Valenkovlarning bolalar xor ijrochiligining targ‘iboti uchun tizimli ishlarni amalga oshirgani butun respublika bo‘yicha bolalar xor ijrochiligining rivojlanishida muhim bosqich hisoblandi.

Xor san’ati madaniy hayotimizda keng o‘rinni tutgan, inson shaxsiyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san’at turidir. Xor musiqa tarbiyasi esa, nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biridir, u atrofdagi go‘zal narsalarini to‘g‘ri idrok etishga va qadrlashga o‘rgatadi. O‘quvchilarga nafosatli tarbiya berishda umumta’lim maktablaridagi, musiqa madaniyati darslarini ahamiyati katta. O‘quvchilar nafosat hissini, san’at sirlarini tushunishni va qadrlashni, san’atdan bahramand bo‘lishni, avvalo maktablarda o‘rganadilar. Nafosat didini shakllantirish uchun esa, musiqa madaniyati darslari bilan bir qatorda sinfdan tashqari musiqa tarbiyasini ahamiyati katta. Chunki, sinfdan tashqari musiqa tarbiyasining ommaviy va to‘garak shakllarida bolalar yalpi tarzda jalb etiladi. Zotan, xor musiqa tarbiyasi sozanda yoki xonandani emas, eng avvalo insonni tarbiyalaydi O‘sib kelayotgan yosh avlodni musiqa, go‘zallik olamiga olib kiradi. Chunki, musiqa inson hayotiga kuchli ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega va ahloqiy-nafosat tarbiyasining muhim vositasidir. Inson musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, umrbod musiqadan zavq topadi. Musiqadan ozuqa olish uchun esa, inson yuksak madaniyatli, sof qalb egasi, go‘zallikni xis eta oladigan bo‘lishi kerak. Olimlardan birlari: «Odam shaxs bo‘lishi uchun, u ruhiy tomonidan rivojlanishi, o‘zini bir butun inson deb his qilmog‘i kerak» - degan edi.

**Foydalanilgan adabiyot**

1. Sh.Ro‘ziyev – “Xorshunoslik” Toshkent 1987 yil

# **ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 15-ҚИСМ**

**Масъул мұхаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 28.02.2022

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000